

CAJEM
- SCIENCE

Central Asian Journal of
**ECONOMICS AND
MANAGEMENT**

Osiyo iqtisodiyot va
**MENEJMENT
JURNALI**

Ilmiy-amaliy jurnal
№4 | 2024

UZBEKISTAN

ISSN 2181- 4228
(Online)

*CAJEM-SCIENCE***«Osiyo iqtisodiyot va menejment jurnali»****«Central asian journal of economics and management»****«Центрально-азиатский журнал экономики и менеджмента»**

ELEKTRON JURNAL

Nashr №4. (oktabr, noyabr, dekabr, 2024)

Elektron jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 02.08.2022 yil sanada №1690 guvohnomasi bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal tashkilotchisi: «I-EDU GROUP» MChJ**Xalqaro indeksi:** ISSN 2181-4228 (Online)**Tahririyat telefon raqami:** +998 (94) 018-02-55**Tahririyat manzili:** 111519. Toshkent shaxri. Yangi hayot tumani, Ho'ja Uchqun MFY, Daryobo'yi ko'chasi 34 uy.**Web-sayt:** <https://cajem-science.org>**E-mail:** cajemscience@gmail.com**JURNAL QUIYIDAGI BO'LIMLAR BO'YICHA ILMIY MAQOLALAR QABUL QILADI:**

- Raqamli iqtisodiyot.
- Yashil iqtisodiyot
- Buxgalteriya hisobi.
- Bank ishi.
- Biznes tadqiqotlari.
- Korporativ boshqaruv.
- Tibbiyot menejmenti.
- Boshqaruv etikasi.
- Tadbirkorlikni rivojlantirish.
- Ta'lim menejmenti.
- Moliyaviy boshqaruv.
- Sifat menejmenti.
- Xalqaro munosabatlar.
- Boshqaruv metodologiyasi.
- Boshqaruv falsafasi.
- Inson resurslari.
- Davlat boshqaruvi.
- Boshqaruv sotsiologiyasi.
- Xizmat ko'rsatish sohasi va turizm.
- Ishlab chiqarish.

OPEN ACCESS

*CAJEM-SCIENCE***TAHRIRIYAT JAMOASI TARKIBI****BOSH MUHARRIR - QIYOMIDDIN MUFTAYDINOV**

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Andijon, O'zbekiston)

BOSH MUHARRIR YORDAMCHISI - SARVARBEK AVAZBEKOVICH MIRZAYEV

Andijon mashinasozlik instituti (Andijon, O'zbekiston)

TAHRIRIYAT JAMOASI**NODIRBEK IBRAGIMOVICH ASKAROV**

Andijon davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Andijon, O'zbekiston)

AZIZBEK AXMEDOV BAXODIROVICH

Andijon mashinasozlik instituti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Andijon, O'zbekiston)

ULUG'BEK ABDUXALILOVICH MADRAHIMOV

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), (Andijon, O'zbekiston)

ILXOMJON YULDASHEVICH UMAROV

Andijon davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (Andijon, O'zbekiston)

TOHIRJON OLIMJONOVICH MAXMUDOV

Namangan muhandislik texnologiya instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

GULBAXAR YESBOSINOVA TAJENOVA

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus, O'zbekiston)

SOBIR BAHRONOVICH ABDUJABBOROV

Samarqand davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Samarqand, O'zbekiston)

MUZAFFAR ESKANDAROVICH JO'RAXONOV

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Andijon, O'zbekiston)

ZIYOYDIN ABDURASULOVICH ISRAILOV

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisod fanlari nomzodi (PhD), (Andijon, O'zbekiston)

UMIDA ISMAILJANOVNA MARAIMOVA

Andijon davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent (Andijon, O'zbekiston)

DILMUROD VALIJON O'G'LI XAKIMOV

Toshkent davlat agrar universiteti, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Toshkent, O'zbekiston)

TURSUNBOY SOBIROVICH TURGUNOV

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Andijon, O'zbekiston)

MUXAMMADAMIN ABDUVASITOVICH AXUNOV

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Andijon, O'zbekiston)

ILXOMJON IKROMOVICH ERGASHOV

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Andijon, O'zbekiston)

NODIRBEK MADRAXIMOVICH RASULOV

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

BOBIR ORTIKMIRZAYEVICH TURSUNOV

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (Toshkent, O'zbekiston)

ABDULLAJON TOPILOVICH MIRZAYEV

Farg'ona davlat universiteti, Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, (Farg'ona, O'zbekiston)

GUZAL SHEROVNA XONKELDIEVA

Farg'ona davlat universiteti, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor, (Farg'ona, O'zbekiston)

HUMOYUN TOLIBJON O'G'LI QODIROV

Namangan muhandislik texnologiya instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

OYBEK TURGUNPULATOVICH AXMEDOV

Namangan muhandislik qurilish instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

DONIYOR XOMIDOVICH SARIMSAQOV

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), (Andijon, O'zbekiston)

BAHROMJON RO'ZIMOV BAXODIRJONOVICH

Andijon davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa dokroti (PhD), dotsent (Andijon, O'zbekiston)

SARIMSAQOV XOMIDJON USMONOVICH

Andijon mashinasozlik instituti, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent, (Andijon, O'zbekiston)

MAHALLA INSTITUTINING JAMIYATDAGI ROLINI OSHIRILISHI

Z.M.Toshtemirova¹

1. University of Economics and Pedagogy, Andijon, O'zbekiston.

Correspondence: Toshtemirova Zilola Madaminjonovna, University of Economics and Pedagogy, Andijon, Uzbekistan.
e-mail: toshtemirova zilolaxon@gmail.com

Received: 10 October 2024; **Accepted:** 17 November 2024; **Published:** 09 December 2024.

Abstract. Mahalla o'zbek xalqi hayotida, kundalik turmushida alohida o'ringa ega bo'lgan tuzilma hisoblanib, mustaqillik yillarida mahallalar jamiyatning moddiy-ma'naviy asoslarini yaratish tayanchiga aylanib, ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy-siyosiy masalalarni hal etib, fuqarolar yig'inida demokratiya tamoyillarini shakllantirish, inson omilini qadrlash makoni sifatida tiklanmoqda. Ushbu maqola orqali mahallaning o'rni jamiyatining shakllanish jarayonida muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

Keywords. mahalla tuzilmasi, moddiy-ma'naviy asos, munitsipal tuzilma, hududiy ommaviy jamoa, mahallalari uyushmasi, taraqqiyot strategiyasi, "mahalla budjeti" jamoatchilik nazorati, demokratiya tamoyillari, inson omili..

Mahalla o'zbek xalqi hayotida, kundalik turmushida alohida o'ringa ega bo'lgan tuzilma hisoblanadi. Mahalla tuzilmasi va funksiyasi vaziyatga qarab o'zgarib turgan, ammo u o'zini o'zi boshqarish tamoyilini saqlab qolgan, o'z hududida istiqomat qiluvchi kishilar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirib turgan. Mustaqillik yillarida mahallalar jamiyatning moddiy-ma'naviy asoslarini yaratish tayanchiga aylanib, ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy-siyosiy masalalarni hal etib, fuqarolar yig'inida demokratiya tamoyillarini shakllantirish, inson omilini qadrlash makoni sifatida tiklanmoqda.

Mahalla, umuman, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining fuqarolik jamiyatidagi roli ularning muayyan hududdagi aholinini birlashtirishi, uni yagona jamoaga aylanishi va faoliyat ko'rsatishiga xizmat qilishidir. Bugungi kundagi zamonaviy tadqiqotlarda munitsipal tuzilmaning aholisi – hududiy ommaviy jamoa, —hududiy jamoa, —mahalliy hamjamiyat tushunchalari bilan belgilanadi. V.YE. Chirkinning ta'rificha, hududiy ommaviy jamoa – aholini hududiy mansublik belgisi bo'yicha tashkil etishning maxsus shakli va odamlarning fuqaroligidan va yoshidan qat'iy nazar maxsus uyushmasidir. Hududiy ommaviy jamoa sifatida u davlatni tashkil etgan jamiyatlar, ularning ichida tuzilishi mumkin bo'lgan va tashkil etilayotgan boshqa hududiy ommaviy jamoalar: federatsiya subyektlari, siyosiy avtonomiyalar, munitsipal tuzilmalarning aholisi (xalqi)ni ajratadi[1].

So'nggi yillarda mahalla institutining jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash, aholi farovonligini oshirishdagi ishtirokini kengaytirish borasida keng ko'lamli ishlar yurtimizda amalga oshirilmoqda.

2023- yil 21 dekabr kuni qabul qilingan "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni mahallaning jamiyatdagi o'rnini yanada oshirish, aholiga yaqin ko'makchi bo'lishida muhim ahamiyatga ega[3]. Prezident farmoniga ko'ra, mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari hamda O'zbekiston mahallalari uyushmasi hamda uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi.

Mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlarining asosiy vazifasi hamda uyushmaning vazifalari belgilandi. Avvalo, yangilangan Konstitutsiyamizda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga alohida ta'rif berilganiga to'xtalib o'tsak. Avvalgi Konstitutsiyamizda bunday ta'riflar mavjud bo'lmagan. Yangi Konstitutsiyamizning XXI bobi "Mahalliy davlat hokimiyati asoslari, Fuqarolarning

o'zini o'zi boshqarish organlari" deb nomlanib, 127-moddada "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi, hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek milliy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli", deb mustahkamlab qo'yildi[4]. Shuningdek, davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko'maklashishi belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan 7- ta ustuvor yo'nalishning birinchi yo'nalishida mahalla instituti faoliyati samaradorligini oshirish va uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining muhim bo'g'iniga aylantirish maqsadi belgilangan va bir qator vazifalar o'z aksini topgan.

Endilikda Prezidentimizning mazkur farmon bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari institutsional jihatdan tubdan isloh etilyapti. Farmon bilan Respublika hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari hamda O'zbekiston mahallalari uyushmasi, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari tashkil etilmoqda. O'zbekiston mahallalari uyushmasining asosiy 9 ta vazifasi belgilandi. Uyushmaning asosiy vazifasi mahallani chinakamiga boshqaruvning birinchi bo'g'iniga aylantirish, mahallaning xalq bilan davlat o'rtasida «ko'pri» vazifasini bajarishiga sharoit yaratish, mahalladagi muammolarni hal etishda o'zining siyosatini yuritish, aholiga yordam berishdan iboratdir.

Mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari esa mahallani rivojlantirish yuzasidan asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi, daromadlar va xarajatlarga oid dasturlarni ko'rib chiqadi. Respublika mahallani qo'llab-quvvatlash kengashi raisi Bosh vazir, viloyat va tuman, shahar kengashlarining raislari esa tegishincha viloyat va tuman, shahar hokimlari hisoblanadi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasida 5 ta shtat birligidan iborat. "Mahalla yettiligi" faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'limi joriy etilmoqda. "Mahalla yettiligi"ga mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori kiradi. Ular mahalladagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda asosiy javobgar hisoblanadi.

Tuman va shaharlarda "Mahalla budjeti" tizimi amaliyotga joriy etilmoqda. "Mahalla budjeti" shakllantiriladi, ushbu tizim mablag'larini sarflash vakolati mahallaga berilyapti, vazifalar yuklatilyapti. Ammo bu vazifalarni amalga oshirish uchun ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash kerak. YA'ni, mahalla davlatga qaram bo'lib, davlatdan pul so'rashi emas, balki mustaqilligini ta'minlashga intilishi kerak. Buning uchun ham davlat mahallaga ko'mak beryapti. Shuning uchun ham "Mahalla budjeti" tizimi joriy etilib, Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasi ochildi. Ushbu jamg'armalarga jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig'idan undirilgan mablag'lardan tegishli qismi o'tkazilishi belgilangan.

Jamg'arma mablag'larini sarflash vakolati esa mahallaning o'ziga beriladi. Qayerda, qanday muammolar borligini ularning o'zi yaxshi biladi. Yettilik vakillari birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'rganib, shu asosda ish olib boradi.

Barcha fuqarolar yig'inlari tegishli hududda qonunlar va boshqa qonun hujjatlarining ijro etilishi, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi, kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati, imoratlar qurish hamda hovlilar va uylar atrofidagi hududlarni saqlash qoidalariga rioya etilishi, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza etish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Ushbu vakolatlari doirasida fuqarolar yig'inlari davlat va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini yaxshilash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha takliflar beradilar, ya'ni mahalliy boshqaruvni amalga oshirishda ishtirok etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Chirkin V.YE. *Publichnaya vlast.* – M.: Yurist', 2005. S. 28.

- [2] 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
- [3] 2023- yil 21- dekabr kuni qabul qilingan "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmoni.
- [4] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil.

ECONOMIC DIVERSIFICATION AND POVERTY REDUCTION IN UZBEKISTAN

Sh.I.Djalilova¹



1. University of economics and pedagogy, Andijan, O'zbekiston.

Correspondence: Sh.I.Djalilova. University of economics and pedagogy, Andijan, Uzbekistan.

e-mail: shahlojalilova52@gmail.com.

Received: 11 October 2024; **Accepted:** 20 November 2024; **Published:** 10 December 2024.

Abstract. Since gaining independence in 1991 and moving away from a centrally planned economy and toward a more market-oriented framework, Uzbekistan has made notable progress in reducing poverty. The main tactics and laws used by the Uzbek government to combat poverty are examined in this abstract, including infrastructure development, social welfare initiatives, and economic diversification. In order to generate jobs, the nation has concentrated on raising agricultural productivity, advancing education, and encouraging entrepreneurship. Furthermore, foreign investment and collaborations have been essential in promoting economic expansion. Notwithstanding obstacles like regional inequalities and the effects of worldwide economic volatility, Uzbekistan's dedication to eradicating poverty has resulted in quantifiable advancements in healthcare, education, and living standards. This article highlights the significance of inclusive economic growth and sustainable development strategies for the future while analyzing the current initiatives, achievements, and opportunities for further development in Uzbekistan's fight against poverty.

Key words. poverty reduction, economic diversification, social welfare programs, infrastructure development, agricultural productivity, education improvement, entrepreneurship, employment opportunities, international partnerships, economic growth, living standards, healthcare access, sustainable development, inclusive economic growth.

Introduction

The historical and culturally rich country of Uzbekistan is at a turning point in its economic growth. The nation, which is home to more than 34 million people, has advanced significantly since gaining independence in 1991. But there are still issues, especially with regard to economic diversification and poverty alleviation. Uzbekistan, which has historically relied heavily on a small number of industries, particularly agriculture and natural resources, understands how urgent it is to diversify its economy in order to promote sustainable growth and raise living standards.

The government has carried out a number of reforms in recent years with the goals of boosting social welfare programs, promoting entrepreneurship, and boosting economic activity. These programs are crucial for lowering poverty rates and generating employment opportunities, especially in rural areas where subsistence farming is a common source of income.

In order to support a more robust and dynamic economy, this strategy also includes investments in infrastructure, healthcare, and education.

The significance of international collaborations is becoming more and more clear as Uzbekistan develops. The resources and experience required to expedite economic diversification initiatives can be obtained through partnerships with international organizations and foreign investors. By emphasizing inclusive growth and sustainable development, Uzbekistan hopes to build a more just society in which everyone can profit from economic advancement.

This article examines Uzbekistan's multipronged strategy for reducing poverty via economic diversification. It looks at the effects of different policies meant to boost education, encourage entrepreneurship, and increase agricultural productivity in order to create a more prosperous future

for the country.


Material and Methods

What Are the Measures of Economic Diversification?

Of the three economic diversification metrics used by economists, the Theil Index is currently the most popular, even appearing in the IMF’s Export Diversification Index (EDI). According to Olivier Cadot and others, it is favored in part because it can be divided into groups of export lines[1]. More specifically, a country’s active export lines i.e., goods that the country has previously exported and inactive export lines i.e., goods that the country has not exported can be used to measure diversification independently. According to Cadot and others, the latter is known as the extensive margin, or its «between» component, while the former is known as the intensive margin, or the «within» component of the Theil Index[2]. Nigeria, for instance, exported 491 of the 31,048 distinct products listed in the 2017 United Nations Harmonized Commodity Description and Coding Systems (HS) in its most comprehensive classification (HS-6). Changes in concentration at its extensive margin, which includes products like maple syrup and (presumably) snow plows, as well as at its intensive margin, which includes commodities like petroleum and cocoa, would both be taken into account when calculating the Theil Index for Nigeria for 2019. Therefore, the index results would show whether Nigeria’s diversification came from products it did not previously export or from further diversification in the products it did export.

Among development practitioners, the Public Expenditure and Financial Accountability (PEFA) framework is the most widely used tool to assess the strengths and weaknesses of public financial management (PFM) performance, which has implications for fiscal diversification. Under seven major pillars, it is used to evaluate and report on the PFM performance’s advantages and disadvantages[3] Budget reliability is the subject of pillar one; problems that affect several PFM systems are the subject of pillars two and three; and important phases of the budget process are the subject of pillars four through seven (refer to figure 1). There are two to seven indicators in each pillar, for a total of thirty-one indicators. For instance, the constituent indicators of the Budget Reliability pillar are Revenue Outturn, Expenditure Composition Outturn, and Aggregate Expenditure Outturn. Every indicator is categorized under PEFA’s seven pillars of PFM performance and rated on a scale from “A” (highest) to “D” (lowest), indicating varying degrees of adherence to best practices. A country’s PFM performance on three budgetary outcomes adequate service delivery, strategic resource allocation, and overall fiscal discipline is summarized by the PEFA framework, which consists of the seven pillars and thirty-one indicators[4].

The Seven PEFA Pillars and the Budget Cycle



SOURCE: Adapted from “Framework for Assessing Public Financial Management,” Public Expenditure and Financial Accountability 2016, 3.

Results and Discussion

The pursuit of economic diversification and poverty reduction in Uzbekistan has yielded several notable outcomes that reflect the complexity and dynamism of the country's socio-economic landscape. This section delves into the key results of recent initiatives and policies, followed by a discussion of their implications for sustainable development.

Economic Growth and Sectoral Shifts

Until spring 2024, Uzbekistan was one of the few countries in the world that lacked internationally comparable poverty estimates. For decades, the country had measured poverty in a way that could not be directly compared with the rest of the world, making it hard to understand how effective Uzbekistan's progressive social and economic reforms were[5].

Recent years have seen a positive shift in Uzbekistan's economic landscape, characterized by steady GDP growth. The diversification efforts have led to the emergence of new sectors, including manufacturing, information technology, and tourism. As a result, there has been a gradual decrease in reliance on traditional sectors like cotton and grain. For example, investments in value-added processing and modern production methods have greatly raised the textile industry's GDP contribution. This change reduces poverty by improving economic resilience and generating employment opportunities. conventional industries like grain and cotton.

Poverty Reduction Trends

Poverty rates are declining, according to official data, especially in cities. This accomplishment has been made possible in large part by the extension of social safety nets and focused initiatives to combat poverty. Communities have been empowered by increased access to education and vocational training, which has allowed people to acquire skills that are in line with the demands of a changing labor market. But there are still problems, particularly in rural areas where poverty is more pervasive because of systemic problems and restricted access to resources.

A key element of the diversification strategy has been the government's emphasis on fostering entrepreneurship and assisting small and medium-sized businesses (SMEs). To support the growth of local businesses, a number of financial incentives have been implemented, such as grants and low-interest loans. Many entrepreneurs have been able to reduce household poverty, create jobs, and contribute to economic growth thanks to this support. Systemic obstacles like red tape and restricted market access, however, still present difficulties for SMEs, highlighting the necessity for continuous reforms.

Opportunities and Difficulties

Even though there has been a lot of progress, a number of issues need to be resolved to maintain the momentum. Lack of infrastructure, corruption, and occasionally onerous regulations can all obstruct progress. Additionally, the shift to a more market-oriented economy calls for an all-encompassing strategy that incorporates strengthening governance and encouraging transparency.

On the other hand, Uzbekistan has a special opportunity as a result of the emphasis on digital transformation. Technology investments can spur innovation, improve efficiency across industries, and enable better service delivery. By enabling underrepresented groups to engage in the economy, increasing digital access can also promote inclusion. The World Bank's latest update of global poverty numbers, published in March 2024, includes new data from Uzbekistan for the first time, putting the country's poverty reduction story in a global and regional perspective. The World Bank monitors global poverty using three different global poverty lines that apply to countries at different levels of economic development.

Uzbekistan, a lower-middle income economy, has successfully reduced its poverty rate – the share of the population living below the poverty line – to 5 percent by 2022 at the lower-middle income poverty line (\$3.65 per person per day in 2017 PPP)[6].

Conclusion

In conclusion, there have been notable successes and ongoing difficulties along Uzbekistan's path to economic diversification and poverty alleviation. Even though the results show improvement, especially in urban areas and developing sectors, reforms and strategic investment must continue. By removing current obstacles and utilizing entrepreneurship and technological opportunities, Uzbekistan can create the conditions for long-term economic growth that benefits. All facets of Uzbekistan's population stand to gain from sustained economic growth if current obstacles are removed and entrepreneurship and technological opportunities are taken advantage of.

A Poverty Reduction Strategy project has been developed for the period up to 2030, which includes priorities such as ensuring macroeconomic stability, implementing a balanced regional policy,

comprehensive development of infrastructure and entrepreneurship, and ensuring employment. In addition to economic mechanisms, there are plans to increase the efficiency of the education and health systems and to improve the system of social assistance and services for vulnerable groups.

A national poverty line has been established based on minimum consumer expenditure. According to this criterion, the poverty rate was 17% in 2021, decreased to 14% in 2022, and is estimated to further reduce to 12% in 2023.

The goal is to double the economy's volume by 2030 and join the ranks of countries with above-average incomes. In addition, there are plans to halve poverty by 2026.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Cadot et al., "Export Diversification: What's Behind the Hump?" Working Paper 12673, National Bureau of Economic Research, November 2006.

[2] Cadot et al., "Export Diversification: What's Behind the Hump?" "What Is PEFA?" Public Expenditure and Financial Accountability, 2020.

[3] Zainab Usman and David Landry "Economic Diversification in Africa: How and Why It Matters" Carnegie Endowment for International Peace Publications Department Massachusetts Avenue NW Washington, DC 20036

[4] "What Is PEFA?" Public Expenditure and Financial Accountability, 2020.

[5] <https://blogs.worldbank.org/en/opendata/charting-uzbekistan-s-path-to-poverty-reduction--insights-from-i>

<https://uzembassy.uk/news/1040#:~:text=A%20Poverty%20Reduction%20Strategy%20project,and%20entrepreneurship%2C%20and%20ensuring%20employment.>

O‘ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA ERISHISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

A.Aysachev¹

1. University of economics and pedagogy, Andijan, O‘zbekiston.

Correspondence: Aysachev Abdulfotih. University of economics and pedagogy, Andijan, Uzbekistan.
e-mail: a.aysachev_89@mail.ru.

Received: 12 October 2024; **Accepted:** 21 November 2024; **Published:** 12 December 2024.

Abstract. Ushbu maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan jadal islohotlar negizida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiyalash, Davlat ulushiga ega bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish samaradorligini yanada oshirish masalalariga ahamiyat berilgan.

Key words. biznes, samaradorlik, kapital, investitsiya, iqtisodiyot, korxonalar, bozor, strategiya, aksiya.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan jadal islohotlar negizida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik-texnologik yangilash va raqobatchilikka asoslangan biznes muhitini yaratish, shu jumladan davlat tassarrufidan chiqarilgan va xususiylashtirilgan korxonalar negizida tashkil etilayotgan xo‘jalik subyektlari, shuningdek, Davlat ulushiga ega bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish samaradorligini yanada oshirishning ahamiyati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish borasida «... nafaqat iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini, balki, eng avvalo, hududlarni kompleks rivojlantirish va mamlakatimiz barcha fuqarolarining hayotiy manfaatlarini ta‘minlashga va ularning daromadlarini ko‘paytirishga doir istiqboldagi muhim vazifalar turishi kerak»[1]. Bu holat, aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirish strategiyasi va samarali boshqarish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-2021 yillarga O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning harakatlar strategiyasi muhimdir. Harakatlar strategiyasining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari”da aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlantirish va samarali boshqarishni tashkil qilish jarayonlariga “korporativ boshqaruvining zamonaviy standartlar prinsiplari va usullarni joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish”[2] muhim vazifalardan hisoblanadi.

Hozirgi paytda O‘zbekistonda biznes yuritishning korporativ shakli, nisbatan yangi va endi shakllanish bosqichida hisoblanib, yetarli boshqaruv tajribasiga ega emas va amalda samarali boshqaruv texnologiyalarsiz va kasbiy tajribasi yuqori korporativ boshqaruvchilarsiz faoliyat ko‘rsatmoqda. Respublikada o‘tkazilayotgan ekspert tadqiqotlari amaldagi boshqaruv tizimi ko‘pincha strategik va bozor asoslariga ega emas deb ta‘kidlashga imkon beradi. U ayrim mutaxassislarning tajribasi, intuitsiyasi, vijdonligiga bog‘liq bo‘ladi. Korxonada direktor funksiyalar bo‘yicha strategik emas, balki texnologik qayta qurollanish jarayonining bosh nazoratchisi va «siljituvchisi» hisoblanadi. Investitsion jarayonlar ko‘pchilik korxonalarda (kamida 85 foiz) oqilona boshqariladigan hisoblanmaydi va ularning rivojlanishi yoki yaqqol zarurat holatida, yoki tasodifiy ravishda amalga oshiriladi. Investitsiyalardan, jumladan, kapital qo‘yilmalardan foydalanish samaradorligi ustidan qoniqarli nazorat yo‘q.

Kompaniya egalari va menejerlari, shuningdek, boshqa manfaatdor shaxslarning (kreditorlar, yollanma xodimlar, tashqi jismoniy shaxslar, investitsion fondlar, banklar, maxalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari) ularning manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha o‘zaro munosabatlar tizimida korporativ boshqaruv samaradorligi ko‘p jihatdan aksiyadorlik jamiyati tuzilmasiga (aksiyalar

paketining to'planish darajasi, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat ko'rsatishining huquqiy tartibga solinishi va boshqa omillarga) bog'liq.

Korporativ boshqaruvda muammoli vaziyatlarning paydo bo'lish sabablari odatda mulkka egalik qilishni uni bevosita boshqarishdan ajratish va korporativ munosabatlar qatnashchilarining asosiy guruhlarini manfaatlarini bo'yicha farqlanadigan kurash bilan bog'lanadi. Bunda har bir aksiyadorlik jamiyati uning faoliyat ko'lamini, kompaniyaning atrof- muhit va boshqa ichki va tashqi omillar bilan o'zaro aloqalar harakteriga qarab uning korporativ boshqaruvida qaysi qatnashchilarning muayyan guruhlarini ifodalanishi lozimligi haqidagi masalani hal qiladi.

Zamonaviy sharoitlarda aksiyadorlar menejmentni almashtirish va mulkni qaytadan bo'lib olish bilan g'alabaga erishish ehtimoli yuqori bo'lgan hollardagina qarama-qarshilik xarajatlari va mojarolarga boradi. Bunda muholibat ko'pincha mehnat jamoasini o'z tomoniga og'darib oladi, mulkni qayta taqsimlashning qo'shimcha mexanizmlaridan (aksiyalar emissiyasi, qayta tashkil qilish), turli hil tashqi ma'muriy – siyosiy va boshqa vositalardan foydalanadi. Korporativ boshqaruv sohasidagi mahalliy mutaxassislarning ta'kidlashicha[3], hozirgi paytda mamlakatda korporativ munosabatlarning rivojlanish jarayoni umuman olganda bozor munosabatlariga o'tish yo'llari va ularning iqtisodiy rivojlanish mentalitetiga ta'siri bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq jihatlarga tobora ega bo'lib bormoqda.


Bugungi kunga qadar O'zbekistonda korporativ boshqaruv standartlarini joriy qilish va uning samaradorligini oshirishga barcha korxonalarda ham yetarlicha e'tibor qaratilayotgani yo'q. Bu holatning sababi, quyidagilardan iborat: – korxonalar korporativ boshqaruv standartlarini joriy qilish zaruratidan xabardor emas; – aksiyadorlik qonunchiligi sohasidagi normativ-huquqiy baza mukammal emas; – korporativ boshqaruv samaradorligini baholash mezonlarini qo'llash qiyin[4]. Bundan tashqari, korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan apparati yo'q ekanligi korporativ standartlarga rioya qilish zaruratini tushunishni qiyinlashtiradi. Mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarini har tomonlama o'rganish shuni ko'rsatadiki, boshqaruv qarorlarining iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari ikkinchi darajali bo'lib qolgan, vaholanki boshqaruv iqtisodiy samaradorligini baholashning an'anaviy usullarini mahalliy korporatsiyalarga nisbatan amalda qo'llab bo'lmaydi. Shunday ekan, ushbu murakkab muammoning yechimini topishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar dolzarbligi juda yuqori hisoblanadi[5].

Hozirgi paytda korporativ boshqaruv samaradorligini baholash uslubiyatlarining ikkita guruhi mavjud: boshqaruv va iqtisodiy uslubiyatlar. Boshqaruv mezonlaridan foydalangan holda korporativ boshqaruv samaradorligini baholash usullari asosan turli reytinglar bilan ifodalanadi. «RID–Ekspert RA» korporativ boshqaruv reytingi mulkdorlar manfaatlariga rioya qilinishini: kompaniyaning korporativ boshqaruv sohasidagi Rossiya qonunchiligi talablariga javob berishi, korporativ boshqaruv Kodeksi tavsiyalariga rioya qilinishi, kompaniya aksiyadorlarining huquqlari buzilishi risklari mavjudligi va h.k.ni baholaydi[6]. Ushbu usulning kamchiligi shundaki, u kompaniyaning daromad keltirish qobiliyatini hisobga olmaydi. Asosiy e'tibor mulkdorlar manfaatlariga huquqiy rioya qilishga qaratiladi. CORE-reyting, reyting «PRAYM-TASS», korporativ boshqaruv reytingi, Standart&Poor's, Brunswick UBS Warburg – ushbu baholash usullarining barchasi har bir baholash ko'rsatkichiga ekspertlarning subyektiv fikrlariga asoslangan vazn beradi. Tahlil qilinayotgan kompaniyalar guruhining oliy natijalarini taqqoslash integratsiyalangan ko'rsatkichi foydalaniladi, bu tahlil qilinayotgan korxonalar meyorlashtirilgan ko'rsatkichlaridan koordinata nuqtasidan etalon korxonalar yolg'iz holdagi koordinata nuqtasigacha bo'lgan masofani ko'rsatadi. Ushbu usullar kamchiligi shunga borib taqaladiki, reyting baholari kam axborot beradi, chunki korxonaning boshqa firmalar orasida egallab turgan o'rnini ko'rsatadi, xolos. Bu usullar faqat korporativ boshqaruv mexanizmlari samarali ishlayotgan kompaniyalarga nisbatan qo'llanishi mumkin. Mahalliy uslubiyatlar qarama-qarshi xarakterga ega, chunki ekspertlarning fikrlariga asoslanadi, xorijiy uslubiyatlarni esa mahalliy korxonalar nisbatan doimo qo'llab bo'lmaydi, chunki ular axborot shaffofligi borasida xorijiy baholovchilar talablariga javob bermaydi. Etalon korxonalar ko'rsatkichlarini shakllantirish ancha shubhali hisoblanadi, chunki vaqt o'tishi bilan yo'nalishni ko'rsatuvchi belgilar o'zgaradi.

Shuningdek, ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar hisobga olinmaydi. Korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning ushbu usullari mulkdorlarning manfaatlarini differentsiya qilishga

imkon bermaydi va tahlil qilinayotgan korxonalar faoliyatini baholashning iqtisodiy mexanizmlarini aniqlashtirmaydi. Iqtisodiy mezonlardan foydalangan holda korporativ boshqaruv samaradorligini baholash usullari:

- korxonaning berilgan vaqt oralig'ida bankrotga uchrash ehtimolini bashorat qilishning statistik asoslangan modellari;
- korxonalarni reytinglashning rang uslubiyatlari;
- korxonalarni rangga ajratishning tarmoq usullari;
- kreditlash maqsadida korxonalar reytingini aniqlash uslubiyati. Bu usullarning kamchiligi shundaki, ular iqtisodiy foydani baholashga asoslanadi. Ular mulkdorlarning korxonalar ishidan manfaatdorligini, misol uchun, korxonalar faoliyati ustidan nazorat o'rnatish manfaati, boshqaruv qarorlariga ta'sir etish imkoniyati va h.k.ni hisobga olmaydi. Shuningdek, zamonaviy amaliyotda korxonada korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning korxonaning bozor qiymati va moliyaviy holatini tahlil qilish asosida boshqaruv samaradorligini baholash natijalarini olishga asoslangan turli miqdoriy usullari ham qo'llanadi (1 rasm):



1-rasm. Korxonani boshqarish samaradorligini baholashning miqdoriy usullari

Manba: Саати Т. Принятие решений. Метод анализа иерархий. – М.: Радио и связь, 1993. – 366с.

Korxonaning moliyaviy holatini tahlil qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- bankrotga uchrash ehtimoli baholanadi (Altmanning ikki omilli modeli orqali)
- korxonaning moliyaviy barqarorligi baholanadi (Taffler modeli).

Altmanning ikki omilli modeli kompaniyaning bankrotlik darajasini baholaydi, Tafflerning ko'p omilli modeli esa kompaniyaning to'lov layoqati modelini tuzadi. Natijada barcha hisoblab chiqilgan ko'rsatkichlar taqqoslanadi va korxonaning moliyaviy holati haqida xulosa chiqariladi.

Ushbu usulning kamchiligi shundaki, moliyaviy qiyinchilikka ega bo'lgan kompaniyalar qanday qilib bo'lmasin, o'z hisobotlarini e'lon qilishni to'xtatib turadi, chunki uzoq vaqt davomida to'g'ri ma'lumotlar olib bo'lmaydi. Hisobotlarda chop etiladigan ma'lumotlar ishonchli bo'lmasligi mumkin, bu esa shunga olib keladiki, korxonalar faoliyatining ayrim ko'rsatkichlari uning to'lov layoqatiga ega emasligidan dalolat bergan bir paytda boshqa ko'rsatkichlar uning faoliyati barqaror ekanligi haqida mulohaza yuritishga asos bo'ladi.

Korxonada korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning ikkinchi uslubiyati uning bozor qiymatini tahlil qilishga asoslanadi. Daromadni kapitallashtirish usuli korxonaning joriy daromadlarini kapitallashtirish koeffitsiyentiga bo'lish yo'li bilan aniqlashga asoslanadi.

Asosiy kamchilik – bu usulni qo'llash uchun zaruriy va majburiy shart kompaniya kelajakda keltiradigan daromadlar joriy daromadlar bilan bir xil darajada qolishini taxmin qilish hisoblanadi.

Aksiyalar kurs qiymatini baholash usuli hozirgi va oldingi davrlardagi aksiyalar kurs qiymatini taqqoslashdan iborat. Bu yerda asosiy kamchilik – boshlang'ich ma'lumotlar yo'qligi hisoblanadi, chunki birjalarda tor doiradagi mahalliy kompaniyalarning aksiyalari kotirovka qilinadi.

Shunday qilib, xorijdan o'zlashtirilgan va mahalliy sharoitlarda qo'llanayotgan korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning barcha usullari doim ham samarali bo'lavermaydi. Korporativ boshqaruvning iqtisodiy samaradorligini baholashga yangicha yondashuvlar yaratishga asoslangan tamomila boshqa usul talab qilinadi[7].

Bugungi kunda aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish tizimi muammolari qatoriga quyidagilar kiradi: korporativ boshqaruv va nazorat sohasida amaliy mexanizmlarni shakllantirish borasida

faollikning sustligi, mojarolarga olib keluvchi aksiyadorlar manfaatlarini uzoq muddatli himoya qilish mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi. Lekin, shunga qaramay, mamlakat iqtisodiyoti asta-sekinlik bilan mulkchilik huquqining o'ziga xos bo'lgan barqarorlashuv belgilari bilan rivojlanishning sifat jihatidan yangi bosqichiga o'tmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, korporativ boshqaruv mohiyatining ushbu talqinida qo'shma faoliyat sinergiyasi salohiyati va mulkchilik masalalarini integratsiyalashgan korporativ tuzilmalar shakllantirish bosqichidayoq qo'yish ko'zda tutiladi: bunda boshqaruv funksiyalarning barcha xilma-xilligini korporatsiyaning ayrim qatnashchilari tomonidan ham, ularning birgalikdagi loyiha va manfaatlarini amalga oshirish sifatida ham ko'rib chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi // Xalq so'zi, 2016 yil 15 dekabr, № 247 (6682).

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi 4947-son farmonining 1-ilovasi «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi».

[3] Иванова Е.А., Шишкина Л.В. Корпоративное управление. – Ростов н/Д: «Феникс», 2007. – 256с.

[4] Филатова А.А., Кравченко К.А. Современная практика корпоративного управления в российских компаниях – М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. – 245с.

[5] Моисеев С. Регулирование деятельности рейтинговых агентств на национальном рынке // Вопросы экономики, 2009. - №2. – С. 42.

[6] Hoshimov A.A. Korporativ boshkaruv shaklidagi tuzilmalarni rivojlantirish istiqbollari. – T.: Fan, 2003.

[7] Айсачев Абдулфотих Абдулфаизович. (2024). ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНАЛЬНЫХ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РАЗРЕЗЕ ТЕРРИТОРИИ РЕГИОНА. Web of Discoveries: Журнал анализа и изобретений, 2 (6), 119–127. Получено с <https://webofjournals.com/index.php/3/article/view/1618>

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA AVTOMOBILSOZLIKNING RIVOJLANISHI

F.Xolmirzayev¹

1. University of economics and pedagogy, Andijon, O‘zbekiston.

Correspondence: Xolmirzayev Furqatbek Muxtarjonovich. University of economics and pedagogy, Andijan, Uzbekistan. e-mail: a.aysachev_89@mail.ru.

Received: 13 October 2024; **Accepted:** 20 November 2024; **Published:** 14 December 2024.

Abstract. Ushbu maqolada avtomobilsozlik sanoatining global iqtisodiyotdagi ahamiyati va O‘zbekiston iqtisodiyotidagi ulushi ko‘rib chiqilgan hamda rivojlanish istiqbollari ahamiyati yoritilgan. Avtomobilsozlikning jahondagi va O‘zbekistondagi vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari o‘rganilgan. Muallif tomonidan avtomobilsozlik korxonalarida iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish usullari tahlili va investitsiya jalb etishning muammolari, hamda takliflar keltirilgan.

Key words. sanoat korxonalari, avtomobilsozlik korxonalari, investitsiyalar, investitsiya salohiyat.

Avtomobilsozlik sohasiga muttasil qiziqish hamda uning insoniyat hayot tarziga sezilarli ta’siri ko‘plab tadqiqotlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Shubhasiz, mashinasozlik fan va texnika taraqqiyotini o‘zida aks ettiruvchi jahon sanoatining muhim tarmoqlaridan biri sifatida sanoati rivojlangan mamlakatlarda yetakchi o‘rinni egallaydi. Metallurgiya, neft-gaz hamda kimyo sanoati, elektrotexnika va boshqa tarmoqlar ko‘p tarmoqli sanoatdan biri bo‘lib, unda 1 ta ish o‘rni turdosh tarmoqlarda 7 ta ish o‘rnini yaratadi. Yuqori muhandislik salohiyatiga ega mamlakatlar orasida yetakchi bo‘lishga imkon beradigan eng ilg‘or texnologiyalar sanoati fan va ishlab chiqarish sohasida o‘z imkoniyatlarini yaratadi va kengaytiradi.

Adabiyotlar sharhi.

Xorijlik olimlardan R.S.Kaplan, D.P.Norton “Strategiya xaritalari: nomoddiy aktivlarni moddiy natijalarga aylantirish” asarida korxonaning samaradorligini oshirish va iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Bu olimlarning qarashlarida asosiy e’tibor, strategik boshqaruv tizimini korxonaga va tashkilot uchun asosiy xususiyatlarini, uning samaradorligini baholashga qaratilgan.[1]

M.Porter “Xalqaro raqobat” asarida kompaniyalarning rivojlanishida innovatsiyalarning o‘rni, ularni qo‘llash xususiyatlari, kompaniyaning barqaror rivojlantirilishiga faqat innovatsiyalarni doimiy ravishda joriy etish hamda kompaniyalarning raqobat ustunligiga erishishlarida innovatsiyaning ta’siri muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan.

R.S.Muratov, I.A.Djalolova, S.Sh.Oripovlarning “Korxonaga iqtisodiyoti” asarida korxonaga alohida obyekt sifatida qaralib, uning mazmun va mohiyati, unga qo‘yiladigan talablar, ko‘rsatkichlar tizimi, moliyaviy barqarorligi va boshqaruvi masalalari atroflicha yoritib berilgan. Korxonalar boshqaruvi va ularga qo‘yiladigan talablar, tamoyillar, boshqaruv shakllari baholab berilgan.[2]

Korxonaga strategik maqsadlari shuning uchun muhimki, ular korxonaga raqobat mavqeyini mustahkamlaydi va biznesning rivojlanish yo‘nalishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada avtomobilsozlikning iqtisodiyotdagi o‘rni va respublika sanoat tarkibidagi ulushi va uning iqtisodiyotdagi amaliy tahlil usullaridan foydalanilgan holda tahlil qilingan. Shuningdek, analiz va sintez qilish orqali avtomobilsozlik sanoatining rivojlanish bosqichlari qiyosiy solishtirish usulida o‘rganilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Global iqtisodiyotda avtomobilsozlik sanoati juda muhim rol o‘ynaydi, hozirgi kunda dunyoda

yalpi ichki mahsulotning 4 foizi va sanoat ishlab chiqarishining 12 foizini tashkil qiladi. Bitta avtomobil ishlab chiqarish uchun sarflanayotgan vaqt rivojlangan davlatlarda 130-150 ishchi/soatni tashkil qiladi. Hozirgi kunda dunyoda 90 ga yaqin modeldagi avtomobillar ishlab chiqariladi va chiqarilgan avtomobillarning o'rtacha 40 foizi eksport qilinadi. Ma'lumki, O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish, milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va sanoatga soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish belgilandi.

Bu sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlari, to'qimachilik, metallurgiya va avtotransport vositalari ishlab chiqarish boshqa sohalarga nisbatan salmoqli ulushga ega bo'lgani holda asosiy strategik tarmoqlardan biri sifatida shakllandi. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasi o'laroq, ushbu sohalarning ulushi 2010 yilda umumiy sanoat mahsulotlari hajmining 60,5 foizini va 2020 yilga kelib esa 62,9 foizga etganligini e'tirof qilishimiz mumkin.[3]

1992-yilda respublikasining birinchi Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan "O'zDEUavto" qo'shma korxonasi o'zbek avtosanoatiga asos soldi. Keyingi 26 yil davomida avtomobil sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi o'zni YalMning 6,6 foizni tashkil etadigan darajagacha o'sdi. Avtomobil sanoatida band bo'lgan qariyb o'ttiz ming nafarga yaqin xodimdan tashqari, avtomobilsozlik, metallurgiya, kimyo, elektr texnikasi kabi boshqa tarmoqlarning mahsulotlariga talabni yuzaga keltirgan holda ushbu tarmoqlarda ham ish o'rinlari yaratildi. Iqtisodiyot va sanoat vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, respublika avtosanoati boshqa tarmoqlarda ham 200 000 nafardan ortiq kishini ish o'rinlari bilan ta'minlaydi. Agarda respublikada ishlab chiqarishni mahalliyashtirish darajasida yuqori sur'atlarga chiqqanida bu raqamlar yanada salmoqli bo'lishi mumkin edi. Hozirgi kunda bu ko'rsatkich faqat yengil avtomashina ishlab chiqarishda 50 foizga yaqinroq, ya'ni, 42 foizni tashkil etmoqda. Qolgan hollarda, avtobuslar va yuk mashinalarini ishlab chiqarishda bu ko'rsatkich 15 foizdan oshmaydi. So'nggi yillarda respublikamizda avtomobilsozlik barqaror o'sib bormoqda. 2016-yilda respublikamizda 88,2 ming dona avtomobil ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2022-yilda 306,7 ming dona avtomobil ishlab chiqarilgan, qariyb 3,5 barobarga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Andijon viloyati sanoat mahsulot hajmi 2020-yilda 36376,5 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 54122 mlrd.so'm ni tashkil qilib umumiy o'sish 163,4 foizni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlar tarkibida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hajmi mavjud bo'lib, ushbu tarmoqning o'sishi 2020-yilda 23293,9 mlrd.so'mni 2022-yil 33264,2 mlrd.so'mni tashkil qilib umumiy o'sish 145,7 foizni tashkil qilgan. Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hajmi 2020-yilda sanoat mahsulot hajmida 64,1 foizni, 2021-yilda 54,8 foizni, 2022-yilda esa 61,4 foizni tashkil etgan. Bundan ko'rinib turibdiki, avtomobilsozlik viloyat sanoat hajmida asosiy ulushni tashkil etadi.[4]

Yurtimizda avtomobilsozlikni rivojlantirish maqsadida bir qator qonun va qarorlar amaldadir. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 18-iyulda O'zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorida quyidagilar belgilab berilgan;

- yengil avtomobillar ishlab chiqarish hajmini 350 ming donagacha oshirish;
 - yengil avtomobillarni mahalliyashtirish darajasini o'rta hisobda 60 foizgacha -yetkazish;
 - yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqarish hajmini 10 ming donagacha -oshirish;
 - avtomobillarning yillik eksport hajmini 100 ming donagacha yetkazish;
 - korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini, shuningdek, "YERP" avtomat-lashtirilgan hisobga olish tizimini joriy etish;
- Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, keyingi davrda avtomobil bozorida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atining kamayish tendensiyasi kuzatilgan va 2020 yilga kelib oldingi yilga nisbatan fizik hajm indeksi 99.8 foizni tashkil qilgan. Bundan tashqari, avtomobillar narxining tabaqalashgan shaklda oshirilishi ishlab chiqarishda markalar ulushini o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Chunki, bu modellar narxi orasidagi farqni qisqarishi aholi o'rtasida nisbatan yuqori imkoniyatlarga ega bo'lgan avtotransport vositalari, ya'ni yuqori sifatli modellariga talabni oshishiga sabab bo'lmoqda. Shunday qilib, respublikamiz sanoatining rivojlanishida avtomobilsozlik sohasi alohida ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan istiqbolli sohalardan biri hisoblanadi. Hususan, avtomobilsozlik biznesi ichki bozorda aholining avtomobillarga bo'lgan talabini qondirish, mamlakatdan valyuta chiqib ketish oqimini kamaytirish hamda eksport orqali davlatga valyuta tushumini oshirish asosida to'lov balansining ijobiy saldosini ta'minlashda sezilarli ulushga egadir. Shuningdek, sohaning rivoji aholi bandligini ta'minlash, real daromadlarini oshirish kabi muhim ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari kapital talab va bilimtalab soha sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1] Муратов Р.С., Джалолова И.А.Орипов С.Ш. (2014) Корхона иқтисодиёти. Дарслик– Тошкент, - 35-б
- [2] O'zbekiston Respublikasining Qonuni. (2020)»Innovatsion salohiyat to'g'risida». O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi, O'RQ-630 son.
- [3] O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. 2022-yil
- [4] R. S. Kaplan and D. P. Norton (2004) Strategy Maps: Converting Intangible Assets into Tangible Outcomes (Boston: Harvard Business School Press)

BARQAROR IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHIDA NARXNING O‘RNI VA VAZIFALARI

Z.M.Toshtemirova¹, G.Rustamjonova¹

1. University of economics and pedagogy, Andijan, O‘zbekiston.

Correspondence: Toshtemirova Zilola Madaminjonovna. University of economics and pedagogy, Andijan, Uzbekistan.
e-mail: toshtemirova zilolaxon@gmail.com.

Received: 13 October 2024; **Accepted:** 24 November 2024; **Published:** 15 December 2024.

Abstract. Bozor mexanizmining muhim tarkibiy unsurlaridan biri hisoblangan narx o‘zining vazifalari orqali barqaror iqtisodiyotning shakllanishi hamda samarali amal qilishiga, bozor muvozanatining ta‘minlanishiga, milliy daromadning iqtisodiyotdagi turli tarmoq va sohalari, xo‘jalik yurituvchi subyektlari bo‘yicha taqsimlanishiga, aholining ijtimoiy jihatdan himoya qilinishiga sharoit yaratadi. Shuningdek, u ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirib, sog‘lom raqobat muhitining yaratilishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada narxning iqtisodiy mazmuni va vazifalari, shakllanish tamoyillari va uning darajasiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar xaqida ma‘lumotlarga ega bo‘lasiz.

Key words. narx, real bozor, ijtimoiy nafillik, muvozanat, ulgurji narx, shartnoma narxlar, chakana narxlar, demping narx, nufuzli narx, narx diapazoni, narx pariteti.

Tovlar qiymati va ularning nafilligi o‘zlarining namoyon bo‘lishini narxda aks ettiradi. Amaliy hayotda qiymat tovar ishlab chiqaruvchilarni, nafillik esa iste‘molchilarni rag‘batlantiruvchi, ularni harakatga keltiruvchi kuch sifatida amal qiladi.

Tovarning xarid qilinishi uning alohida olingan bir kishi uchun emas, balki jamiyat uchun nafilligini va shu bilan birga ijtimoiy qiymatini ham tan olishni bildiradi. Shu sababli, «ijtimoiy nafillik» tushunchasining o‘zi biror tovar (xizmat) ning jamiyat uchun nafilligi, qadr-qiymatga egaligini ko‘rsatadi. Shu mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, narx o‘zida faqatgina nafillik yoki sarflarning birini emas, balki har ikkalasining bir vaqtda mavjudligini va ularning ma‘lum miqdorini pul ko‘rinishida ifoda etadi.

Tovardagi ikki xususiyat birdaniga tan olinmasa, u pulda ifodalanmasa oldi-sotdi sodir bo‘lmaydi. Chunki tovarning qiymati tomonida sotuvchining manfaati, nafilligi (iste‘mol qiymati) tomonida esa xaridorning manfaati yotadi. Tovar egasi o‘z tovari uchun ketgan sarflarni qoplab, ma‘lum darajada, iloji boricha ko‘proq foyda olishni ta‘minlashi mumkin bo‘lgan qiymatni pul shaklida o‘zlashtirishga intilsa, xaridor iloji boricha sarf qilayotgan pulining har bir birligiga ko‘proq nafillikka (iste‘mol qiymatiga) ega bo‘lishga harakat qiladi. Ularning manfaatlari to‘g‘ri kelgan nuqtada, darajada narx o‘rnatilib, tovar pul almashuvi, oldi-sotdi sodir bo‘ladi. Bulardan xulosa qilib aytish mumkinki, narx – real bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafilligining puldagi ifodasidir [1]

Tovardagi ikki xil xususiyatlarning narxdagi ifodasi.

Bu yerda shuni yana bir bor ta‘kidlash joizki, narxda alohida olingan ishlab chiqaruvchilarning individual sarflari emas yoki alohida olingan individual shaxslarning psixologik jihatdan nafillikka bergan bahosi ham emas, balki jamiyat tomonidan tan olingan ijtimoiy sarflar va jamiyat uchun zarur bo‘lgan miqdorda va sifatda yaratilgan va tan olingan ijtimoiy nafillik (iste‘mol qiymat) o‘z ifodasini topadi. Tovlar va xizmatlar uchun qilingan ijtimoiy sarflarning asosli ravishda o‘sishi yoki tovar va xizmatdagi sifat ko‘rsatkichlarining o‘sishi ushbu tovar narxining oshishiga olib keladi.

Narxning mazmunini to‘laroq tushunishda, uning darajasiga ta‘sir etuvchi omillarni bilish muhim ahamiyatga egadir. Bulardan asosiylari bo‘lib qiymat yoki ishlab chiqarish sarflari; tovarning

naflilik darajasi; mazkur tovarga talab va taklif nisbati; raqobat holati; davlatning iqtisodiy siyosati hisoblanadi. Bu omillar ichida tovar qiymati va nafliligi uning narxini belgilovchi asos bo'lib xizmat qiladi.

Narxga ta'sir qiluvchi omillar.

Boshqa omillar esa narxning ijtimoiy qiymat bilan ijtimoiy naflilik miqdori atrofida goh birinchisining, goh ikkinchisining foydasiga tebranishiga sabab bo'ladi.

Narxning iqtisodiy mazmuni uning vazifalari ko'rib chiqilganda yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Narx quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

Muvozanatlikni ta'minlash vazifasi. Bunda narx bozorda talab va taklifning hajmi va tarkibiga ta'sir etish orqali ularni muvozanat holatiga keltiradi.

Qiymat va naflilikni o'lchash vazifasi. Narx qiymat va naflilikning puldagi ifodasi deb aytamiz, chunki qilingan sarf-xarajatlar va olingan natijalar (foyda yoki zarar) narxlar asosida hisob-kitob qilinadi. Ishlab chiqarish va uning natijalarining natural ko'rsatkichlari ham mavjud (tonna, kg, m², m³ kvt-soat). Bu ko'rsatkichlarni shu holicha taqqoslab umumiy ko'rsatkichga keltirib bo'lmaydi. Barcha natural ko'rsatkichlarning umumiy o'lchovi ularning pulda ifodalangan narxidir. Hisob-kitob uchun joriy va qiyosiy narxlar qo'llaniladi. Joriy narxlar amaldagi narxlar bo'lib, ular yordamida yil davomidagi ishlab chiqarish natijalari hisoblanadi. Qiyosiy narxlarda ma'lum yil asos qilib olinib (bazis yil) ishlab chiqarishning natijalari shu narxda hisoblanadi va boshqa yillar bilan taqqoslanadi.

Tartibga solish vazifasi. Bozor holati (konyunkturasi) talab va taklif hamda ularning nisbatiga bog'liq. Talabning ortishi muayyan tovarni ishlab chiqarishni kengaytirishi, askincha hol esa tovar ortiqchaligini, uni ishlab chiqarishni qisqartirish zarurligini bildiradi. Narx tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga ularning daromadlari orqali ta'sir ko'rsatadi. Muayyan ishlab chiqarish harajatlari saqlangan holda narx yuqori bo'lsa, foyda miqdori ortadi, narx tushsa, foyda kamayadi va hatto ishlab chiqaruvchilar zarar ko'rish ham mumkin. Bu ishlab chiqaruvchilar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Narx oshsa ishlab chiqarish kengayadi. Boshqa kapitallar ham foyda yuqori bo'lgan soha va tarmoqlarga oqib kela boshlaydi. Xullas, narx ishlab chiqarishni tartibga solib, uni o'zgartirib turadi va rivojini ta'minlaydi.

Raqobat vositasi vazifasi. Narx raqobat kurashining eng muhim vositasi hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchilar o'z raqiblarini yengish uchun narxni pasaytirish usulidan foydalanishlari mumkin. Demak, narxni o'zgartirib turish usuli raqobatda keng qo'llaniladi.

Ijtimoiy himoya vazifasi. Narx aholining kam daromad oluvchi ayrim qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish vazifasini ham bajaradi. Narxning bu vazifasi tovar (xizmat)lar ijtimoiy dotatsiyalashgan narxlar bo'yicha sotilganda bajariladi. Bunda ular davlat budjeti va turli hayriya mablag'lari hisobiga moliyaviy ta'minlanadi.

Iqtisodiyotning turli sohalari va tarmoqlaridagi ishlab chiqarish va sotish sharoitlarining xilma-xilligi hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi darajasidagi farqlar narx turlarini farqlash zaruriyatini tug'diradi. Iqtisodiyotda amal qilib turgan barcha narx turlari narx tizimini tashkil qiladi. Narxlar tizimida ularning ayrim turlarining iqtisodiy mazmunini qisqacha qarab chiqamiz.

Ulgurji narxlar. Ishlab chiqaruvchilar tomonidan katta partiyadagi tovarlar bir yo'la ko'tarasiga sotilganda ulgurji narxlardan foydalaniladi. Ulgurji narxlar ishlab chiqaruvchilar va ta'minlash-sotish tashkilotlari xarajatlarini qoplashi hamda ularning ma'lum miqdorda foyda ko'rishini ta'minlashi zarur. Ulgurji narxlar tovar birjalari va savdo uylarida ham qo'llaniladi.

Shartnoma narxlar. Bu sotuvchi va xaridorning roziligi bilan belgilanadigan, ular tomonidan tuzilgan shartnomada qayd qilingan narxlardir. Shartnoma narxlar odatda shartnoma bitimi amal qilib turgan davrda o'zgarmaydi. Mazkur narxlar ham milliy va ham xalqaro bozorda qo'llaniladi. U xalqaro bozorda qo'llanilganda tovar (xizmat)larning jahon narxlariga yaqin turadi.

Chakana narxlar. Bu narxlarda tovarlar bevosita iste'molchilarga sotiladi. Chakana narxga tovarning ulgurji narxi, chakana savdo tashkilotlarining xarajatlari va ularning oladigan foydasi kiradi. Chakana narx tovarlarga bo'lgan talab va taklifni bog'lovchi rolini o'ynaydi hamda ularning nisbatiga qarab yuqori yoki past bo'lishi mumkin.

Davlatning narxlarni tartibga solish faoliyati chegaralangan (limitlangan) va dotatsiyali narxlarni vujudga keltiradi. Chegaralangan narxlarda davlat narxlarning yuqori va quyi chegarasini belgilaydi,

ular shu doirada o'zgarishi mumkin. Bunday narxlar yordamida davlat inflyatsiyani jilovlaydi, narxlarni nazorat qiladi.

Dotatsiyalangan narx – bu davlat budjeti hisobidan maxsus arzonlashtirilgan narxlardir. Bunday narxlardan kam daromadli oilalar, beva-bechoralar, ishsiz va nogironlarni hayotiy zarur ne'matlar bilan eng kam darajada ta'minlab turishda foydalaniladi.

Demping narx. Bozorda o'z mavqeini mustahkamlash va raqiblarini siqib chiqarish uchun firmalar maxsus narxdan foydalanadiki, ular demping narx yoki bozorga kirib olish narxi deb ataladi. Demping narxda rasmiy narxning bir qismidan kechib yuboriladi.

Sotish hajmini o'zgartirmasdan yuqori foyda olishga erishish uchun firmalar nufuzli narxdan foydalanadi. Bu narxni qo'llash uchun bozorda raqobat cheklangan bo'lib, monopol vaziyat mavjud bo'lishi zarur. Mazkur vaziyatda talab narxga bog'liq bo'lmaydi, shu sababli narxning ko'tarilishi tovar sotilishini keskin kamaytirmaydi. Bundan tashqari aholining yuqori daromad oluvchi qatlami xarid qiladigan nufuzli tovarlar ham mavjudki, ular nufuzli narxlarda sotiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda yuqori daromad oluvchi aholi qatlami uchun dala hovliga ega bo'lish, mashhur kurortlarda dam olish, oxirgi nusxadagi kiyimlar kiyish, yangi modeldagi avtomashinada yurish — martabali yoki obro'talab iste'mol hisoblanadi. Martabali iste'mol nufuzli narxlarni yuzaga keltiradi. Ular odatdagi narxlardan ancha yuqori bo'ladi. Nufuzli narxlarni qo'llashda tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari va rentabellik darajasi, bozordagi talab, uning o'zgarishi va bozordagi raqobatlashuv sharoiti hisobga olinadi. Shunga qarab, ma'lum davrgacha o'zgarmaydigan qat'iy (standart) narxlar va o'zgaruvchan narxlar qo'llaniladi. Shunday tovarlar borki, iste'molchilar ularning narxi o'zgarmasligini afzal ko'radi. Masalan, kommunal xizmat, transport xizmati ta'riflari shunday narxlar jumlasiga kiradi

Erkin bozor narxlari – bu talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxlaridir. Madaniylashgan bozor sharoitlarini vujudga keltirishda erkin narxlar jamiyat va bozor munosabatlari barcha subyektlari manfaatlarini eng maqbul tarzda uyg'unlashtirishga imkon beradi.

Narx diapazoni narxlar oralig'ining puldagi ifodasidir. Narx diapazoni quyi, o'rta va yuqori narxlarni o'z ichiga oladi. Narx diapazoni qanchalik katta bo'lsa, tovar muomalasi shunchalik tez yuz beradi, chunki talab bilan narx o'zaro bog'lanadi.

Bozor ko'lamini hisobga olinganda hududiy (mintaqaviy), milliy va xalqaro narxlar mavjud bo'ladi. Hududiy narx faqat ma'lum hududiy bozorga xos bo'lib, u shu hudud doirasidagi omillar ta'siridan hosil bo'ladi. Milliy bozor narxi bir mamlakat doirasida amal qiluvchi va ularning xususiyatini aks ettiruvchi narxlardir. Milliy narx mamlakat doirasidagi ijtimoiy sarf-harajatlarni, milliy bozordagi talab va taklifni, tovar nafliligini, uning qanchalik qadrlanishini hisobga oladi. Jahon bozori narxi muayyan tovarga ketgan baynalminal harajatlarni, tovarning jahon standarti talabiga mos kelish darajasini va xalqaro bozordagi talab va taklif nisbatini hisobga oladi [2].

Narx xilma-xil turlardan iborat bo'lsada, ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan, chunki ularda jamiyatdagi iqtisodiy resurslarning ishlatilish samarasi o'z ifodasini topadi. Iqtisodiyot nazariyasida narx nisbati degan tushuncha bor, u narx pariteti deb ham yuritiladi. Iqtisodiyot va undagi jarayonlar bir-biriga bog'liq bo'lganidan narxlar bir-birini yuzaga chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilishning o'ziga xos tamoyillari, mamlakatdagi vaziyat va aholining turmush darajasi hisobga olinib, narxlarni asta-sekinlik bilan va bosqichma-bosqich erkinlashtirish yo'li tanlab olindi. Shu yo'l bilan narxlarni erkinlashtirishning dastlabki bosqichida (1992 yilning boshida) keng doiradagi ishlab chiqarish-texnika vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagi xalq iste'moli mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning erkin narxlari va tariflariga o'tildi. Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo'yildi, ayrim turdagi xizmatlarning eng yuqori tariflari joriy qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1] Jo'rayev T. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.-T.: «Fan va texnologiya» nashr, 2018
- [2] B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). - T.: «Barkamol fayz media», 2017.

IQTISODIYOTNING RAQAMLASHUVI SHAROITIDA OLIY TA'LIMDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

A.A.Iminoxunov¹

1. University of economics and pedagogy, Andijan, O'zbekiston.

Correspondence: Iminoxunov Abduxoxor Abduvoitovich . University of economics and pedagogy, Andijan, Uzbekistan.
e-mail: iminohunov@gmail.com.

Received: 16 October 2024; **Accepted:** 29 November 2024; **Published:** 20 December 2024.

Abstract. Maqolada oliy ta'lim sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari haqida so'z boradi. O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda boshqaruvga oid mavjud yondashuvlar tahlil qilinadi. Ta'lim tizimini boshqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifatini boshqarish, oliy ta'lim tashkilotlari mustaqilligini oshirish, shuningdek, oliy ta'lim tizimini boshqarishda davlatning o'rnini va roli kabi asosiy jihatlarni ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, ta'lim sohasida boshqaruv tizimini tadqiq etgan olimlarning adabiyotlari sharhi va bu jarayonlarni tartibga soluvchi normative-huquqiy hujjatlar tadqiq etilgan.

Key words. oliy ta'lim, ta'lim sifati, boshqaruv tizimi, innovatsion texnologiyalar, universitetlarning avtonomligi, normativ-huquqiy baza, boshqaruv samaradorligi, motivatsiya, rahbar kadrlar, oliy ta'lim tizimining samaradorligi, pul mukofoti berish, maqtov yorlig'i berish, ma'naviy motivatsiya, moddiy mazmun, yaxshi inson, boshqalarga nisbatan yaxshiroq ishlash, lavozimini pasaytirish.

Kirish

Zamonaviy oliy ta'lim tizimi jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tuzilmasining muhim qismi bo'lib, iqtisodiy taraqqiyot va ilmiy-texnika taraqqiyotiga bevosita ta'sir qiladi. Globallashtirish va jadal texnologik taraqqiyot sharoitida oliy ta'lim sohasidagi boshqaruv tizimi innovatsion yondashuvlar va moslashuvchan yechimlarni talab qilmoqda. So'nggi o'n yilliklarda ko'plab mamlakatlarning ta'lim siyosati ta'lim sifatini oshirishga, universitetlarda boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishga va ta'lim muassasalarining avtonomiyasini mustahkamlashga qaratilgan.

Davlat oldida turgan eng muhim masala – bu iqtisodiyot va mehnat bozori talablariga javob beradigan yuqori sifatli ta'lim xizmatlarini qanday ta'minlash, bunda davlat nazoratining munosib darajasini saqlab qolishdir. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini isloh qilish, xalqaro tajribaga tayanish va uni milliy xususiyatlarga moslashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

Maqolaning maqsadi O'zbekiston Respublikasi va rivojlangan davlatlar misolida oliy ta'lim sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirishning asosiy omillarini o'rganish hamda ushbu jarayonni tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodlari

Maqolani yozish uchun tahlil, sintez va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Oliy ta'limni boshqarish sohasidagi mamlakatimizdagi va xorijdagi yetakchi olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Tadqiqotda O'zbekiston, AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlardagi oliy ta'lim tizimini boshqarishni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ham o'rganildi. Qiyosiy tahlil oliy ta'limni boshqarish sohasidagi umumiy tendensiyalar va yondashuvlarni aniqlash, shuningdek, turli mamlakatlarga xos xususiyatlarni aniqlash imkonini berdi.

Adabiyotlar sharhi

Adabiyotlar sharhi oliy ta'limni boshqarish sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar strategik va innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhimligini ta'kidlaydi. Menejment nazariyasiga X.Kunts

va X.Veyxrix kabi xorijiy mualliflar muhim hissa qo'shgan, ularning "Menejment asoslari" asarlari menejment bo'yicha fundamental bilim manbalari bo'lib xizmat qiladi. S. P. Robbins o'z asarlarida maqsadlarga erishishda tashkiliy xulq-atvor va korporativ madaniyatning roliga e'tibor qaratadi.

Bir qator mamlakatimiz olimlari tomonidan mazkur mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, i.f.d., prof. M.X. Saidov va i.f.d., prof., akademik S.S. G'ulomov O'zbekistonda oliy ta'limda boshqaruv texnologiyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan asarlari bilan ajralib turadi. Ularning tadqiqotlari jahonning ilg'or tajribasini milliy sharoitga moslashtirishga qaratilgan bo'lib, bu ularga boshqaruvning o'ziga xos modelini yaratish imkonini beradi.

Garifullin R.R., Xodjaev A.X. kabi olimlarning ishlari ta'lim muhitida barqaror boshqaruv modellarini ishlab chiqish muhimligini ko'rsatadi. Ular inson resurslarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar va yangi yondashuvlardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydilar, bu esa boshqaruvni yanada samarali va moslashuvchan qiladi.

O'zbekistonda oliy ta'limni boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim sohasidagi normative-huquqiy hujjatlar qatorida asosiy o'rinni "Ta'lim to'g'risida"gi egallaydi, bu qonun ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini tartibga solish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son qarori bilan oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi, jumladan:

- Universitetlarning akademik va moliyaviy mustaqilligini oshirish.
- Xalqaro standartlarga javob beradigan yangi ta'lim dasturlarini yaratish.
- Ta'lim jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish va professor-o'qituvchilar malakasini oshirishni o'z ichiga olgan yaqin yillarga mo'ljallangan strategik vazifalar belgilab berildi.

Bundan tashqari, komsepsiya universitetlarni xalqaro ta'lim hamjamiyatlari bilan integratsiyalash va xalqaro standartlar asosida akkreditatsiya tizimini rivojlantirish chora-tadbirlarini o'z ichiga olgan. Bu talabalar va o'qituvchilarning akademik harakatchanligini kengaytirish, ikki tomonlama diplom dasturlarini joriy etish va masofaviy ta'limdan faol foydalanishni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'limni boshqarish bo'yicha xalqaro tajriba

Oliy ta'limni xalqaro darajada boshqarish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, akademik erkinlik, ta'lim sifatini boshqarish, institutlarning iqtisodiy samaradorligi, shuningdek, institutsional avtonomiya kabi turli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida oliy ta'limni boshqarish tizimi akademik erkinlik va universitet avtonomiyasi konsepsiyasi asosida qurilgan. Jon Fuller va Stiven K. Barns kabi yetakchi olimlar ta'lim sifatini oshirish va muassasalar samaradorligini oshirish uchun tahliliy va axborot texnologiyalarini joriy etish muhimligini ta'kidlamoqda. AQShda ta'lim jarayonlarini optimallashtirish va sifat menejmenti tizimini yaratish, shu jumladan ta'lim dasturlarini monitoring qilish va baholash uchun ma'lumotlardan foydalanishga e'tibor qaratiladi.

Buyuk Britaniyada oliy ta'lim tizimi QAA (Oliy ta'lim sifatini ta'minlash agentligi) kabi idoralar orqali tartibga solinadi. Buyuk Britaniyada universitetlar uchun tashqi va ichki akkreditatsiyani joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu esa ta'limning yuqori standartlarini saqlab qolishga yordam beradi. Buyuk Britaniyadagi universitetlarni boshqarish tamoyillari hisobot berish, monitoring va ta'lim dasturlari samaradorligini baholash, shuningdek, moliyaviy shaffoflikka asoslanadi.

Germaniyada oliy ta'lim tizimi ham universitetlarning sifati va avtonomligiga e'tibor qaratilmoqda. Biroq, bu erda davlat akademik erkinlik va davlat nazorati o'rtasidagi muvozanatni saqlab, ta'lim jarayonini tartibga solishga faol aralashadi. Germaniyada universitetlarning roli nafaqat ta'lim muassasalari, balki ilmiy muassasalar sifatida ham katta.

Shvetsiya oliy ta'limni boshqarish tizimi oliy darajadagi akademik avtonomiya va universitet ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan hukumat tomonidan moliyalashtirilishi bilan ajralib turadi. Shvetsiyada ta'lim va tadqiqot sifatini yuqori darajada saqlashga qaratilgan moslashuvchan

akademik boshqaruv tizimi mavjud.

O'zbekiston Respublikasida ham oliy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda, bu esa universitetlarni boshqarish tuzilmasini isloh qilish va normativ-huquqiy bazani yangilashni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'limni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish universitetlarni boshqarishga innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi. Oliy ta'lim tizimini muvaffaqiyatli modernizatsiya qilish uchun O'zbekistonda ta'lim sifatini boshqarish va universitetlarning akademik avtonomiyasini oshirishning aniqroq tizimi zarur.

O'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish universitet boshqaruvi samaradorligini oshirish va talabalar uchun ta'lim olish imkoniyatini yaxshilash imkonini beradi.

Oliy ta'lim tizimini boshqarishda ta'lim sifatini oshirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi yondashuvlarni faol ishlab chiqayotgan O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyati ham e'tiborga molik.

O'zbekiston va rivojlangan mamlakatlar oliy ta'lim davlat boshqaruvi tizimini tahlil qilish

O'zbekistonda oliy ta'lim sohasida davlat boshqaruvi

O'zbekistonda oliy ta'limning davlat boshqaruvida keyingi yillarda jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Islohotning asosiy jihatlaridan biri universitetlarning mustaqilligini oshirishi. Ta'lim muassasalariga mustaqil ravishda o'quv dasturlarini ishlab chiqish, o'qituvchilarni tanlash va moliyaviy resurslarni boshqarish uchun sharoit yaratilmoqda. Shuningdek, ta'lim jarayonining shaffoqligini oshiradigan universitetlar va dasturlarni mustaqil akkreditatsiya qilish tizimini yaratish muhim qadam bo'ladi.

Biroq, islohotlar yo'lidagi muhim qadamlarga qaramay, davlat nazorati tizimi ancha qattiqligicha qolmoqda va universitetlarning o'quv jarayonining tez o'zgaruvchan sharoitlariga moslashuvchanligi va moslasha olmasligi bilan bog'liq muammolar mavjud.

Oliy ta'limni boshqarishda me'yoriy-huquqiy bazaning o'rni

Oliy ta'limni boshqarish samaradorligini ta'minlashda huquqiy-me'yoriy baza muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda bugungi kunda ta'lim sohasini tartibga soluvchi bir qator qonun va me'yoriy hujjatlar mavjud.

Asosiy hujjat O'zbekiston Respublikasining "Oliy va oliy ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2020-yil). Ushbu qonun oliy ta'lim muassasalariga katta avtonomiya beradi, akkreditatsiya tizimini joriy qiladi, shuningdek, ta'lim xizmatlari sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Bundan tashqari, 2022-yilda Oliy ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha Milliy harakatlar rejasi qabul qilingan bo'lib, u ta'lim sifatini oshirish, universitetlarni boshqarishning moslashuvchan tizimini yaratish va ta'lim sohasidagi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

"Raqobat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (03.07.2023 yildagi O'RQ-850-son)ning "Davlat yordami berilishiga va tadbirkorlik faoliyatida davlatning ishtirok etishiga nisbatan raqobatni cheklashga qarshi talablar" deb nomlangan 4-bobi, "Davlat ishtirokidagi korxonalarining raqobatga ta'sirini cheklash" deb nomlangan 24-moddasida quyidagilar belgilangan:

Davlatning tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishi davlat ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav fondida (ustav kapitalida) bevosita yoki bilvosita ishtirok etish orqali, shuningdek davlat-xususiy sheriklik loyihasida davlat sherigi sifatida ishtirok etish orqali amalga oshiriladi.

Quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

- besh va undan ortiq xususiy tadbirkorlik subyekti tovar yoki moliya bozorida faoliyat yuritib kelayotgan, raqobat rivojlangan sohalarda davlat ishtirokidagi korxonani va uning affillangan shaxslarini tashkil etishga;

- respublika ijro etuvchi hokimiyat organlariga va boshqa tashkilotlarga faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalashni amalga oshirish, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish, maxsus elektron tizim vositasida xabarnomalarni qabul qilish, shuningdek ro'yxatdan o'tkazish yoki

akkreditatsiya qilish vakolatlari berilgan sohalarida ushbu organlar va boshqa tashkilotlar tomonidan ular ishtirokidagi korxonalarini tashkil etishga;

Ko'rinib turibdiki, "Raqobat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni tadbirkorlikning ma'lum bir sohalarini litsenziyalashni amalga oshiradigan davlat organlariga tadbirkorlikning aynan shu sohalarida tadbirkorlik bilan shug'ullanishni taqiqlaydi.

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son)ning "Ta'lim sohasidagi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari" deb nomlangan 26-moddasida quyidagilar belgilangan:

- O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ta'lim sohasidagi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlaridir.

- Ta'lim sohasidagi vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari o'z vakolatlari doirasida:
 - nodavlat ta'lim tashkilotlari (quyida matnda NTT deb nomlanadi)ga litsenziyalar beradi, faoliyatini xabardor qilish tartibida amalga oshiradigan shaxslardan xabarnomalar qabul qiladi va ularning reyestirini yuritadi;

- ta'lim tashkilotlarining reytingini aniqlaydi.

Ko'rinib turibdiki, "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (quyida matnda OTFIV deb nomlanadi)ga nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari (quyida matnda NOTT deb nomlanadi)ga litsenziyalar berish vakolatini beradi. Vaholanki, yuqorida keltirilgan "Raqobat to'g'risida"gi qonun tadbirkorlikning ma'lum bir sohalarini litsenziyalashni amalga oshiradigan davlat organlariga tadbirkorlikning aynan shu sohalarida tadbirkorlik bilan shug'ullanishni taqiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 08.08.2024 y.dagi 489-son qarorining "Vazirlikning tuzilmasi" deb nomlangan 2-bobida "Bilim va malakalarni baholash agentligi, davlat oliy ta'lim muassasalari, professional ta'lim tashkilotlari, hududiy boshqarmalar, tizim tashkilotlari va tizimdagi oliy ta'lim tashkilotlari bevosita Vazirlikka bo'ysunadi" deb ko'rsatilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 8 avgustdagi 489-son qarorining 3-ilovasida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi davlat oliy ta'lim tashkilotlarining ro'yxati keltirilgan bo'lib, mazkur ro'yhatda 60 ta oliy ta'lim tashkiloti ko'rsatilgan.

Ko'rinib turibdiki, OTFIV bevosita bo'ysinuvidagi oliy ta'lim tashkilotlari orqali oliy ta'lim xizmatlari bozorida o'z xizmatlarini taqdim etib kelmoqda, shu bilan birga mazkur sohadagi o'zining bevosita raqobatchisi bo'lgan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlariga faoliyat ko'rsatishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladigan litsenziya berish bilan shug'ullanmoqda.

Bu esa, yuqorida ta'kidlangan "Raqobat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni talablariga mos kelmaydi.

Mavjud holatni tahlil qiladigan bo'lsak, amaliyotda uchrayotgan ko'pdan-ko'p munozarali holatlar kelib chiqishiga ham aynan OTFI vazirligi tasarrufida oliy ta'lim tashkilotlari bo'lgani holda, ular orqali o'zi tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan soha – oliy ta'lim faoliyatini litsenziyalash bilan, shuningdek OTMIlar reytingini aniqlash bilan shug'ullanayotganligi sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagilar taklif etiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (quyida matnda VM deb nomlanadi) huzurida bevosita VMga bo'ysunuvchi mustaqil bir organ tashkil etgan holda ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash va reytingini aniqlash, shuningdek attestatsiya va akkreditatsiyalash xizmatlarini amalga oshirishni aynan shu davlat organi faoliyatiga yuklash taklif etiladi;

- mamlakatimiz ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim tizimini boshqarishga vakolatli davlat organlari faoliyatining genezisini hisobga olgan holda OTFIV huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi (quyida matnda BMBA deb nomlanadi)ni OTFIV tasarrufidan chiqarib, bevosita VM bo'ysunuviga o'tkazish va ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash va reytingini aniqlash,

shuningdek attestatsiya va akkreditatsiyalash xizmatlarini amalga oshirishni mazkur tashkilot zimmasiga yuklash taklif etiladi;

- BMBA nominifunksional vazifalaridan kelib chiqqan holda Ta'lim sifatini nazorat qilish agentligi deb nomlash taklif etiladi;
